




## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Namangan viloyati statistika boshqarmasiga 2021- yilning yanvar-avgust oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 100 ta murojaatlar kelib tushgan.

Jumladan:

Viloyat statistika  
boshqarmasiga 2021- yilning  
yanvar-avgust oylarida kelib  
tushgan murojaatlar tahlili




### ELEKTRON



Boshqarmaning elektron pochta orqali kelib tushgan elektron murojaatlar

5

### OG'ZAKI



Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi hamda boshqarmaning ishonch telefoni orqali kelib tushgan og'zaki murojaatlar

12

### YOZMA



To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar

83



# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

**34.0 %**

*34 tasi korxon va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan.*



**11.0 %**

*11 tasi nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan.*



**12.0%**

*12 tasi statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan.*



**10.0 %**

*10 tasi topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan.*




**33.0 %**

*33 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.*




# Murojaatlarni ko'rib chiqish holati




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 77 tasiga chora ko'rildi, 23 tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonidagilar mavjud emas, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha:

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 25.0 % (25 ta) jismoniy shaxslar va 75.0 % (75 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili:



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Namangan shahri 59 ta (o'tgan yilning shu davrida 74 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan 2 ta (3 ta), Kosonsoy tumanidan 3 ta (6 ta), Namangan tumanidan 3 ta (4 ta), Norin tumanidan 2 ta (6 ta), Pop tumanidan 1 ta (1 ta), To'raqo'rg'on tumanidan 5 ta (8 ta), Uychi tumanidan 7 ta (5 ta), Uchqo'rg'on tumanidan 1 ta (5 ta), Chust tumanidan 5 ta, Yangiqo'rg'on tumanidan 6 ta (2 ta), Chortoq tumanida 4 ta (1 ta) boshqa viloyatlardan 2 ta (8 ta) murojaatlar kelib tushgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi

**Viloyat statistika boshqarmasi  
Jismoniy va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash va ijro  
intizomi nazorati bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: A.Abdayev  
(69) 227-85-06**

**e-mail: [namstat@umail.uz](mailto:namstat@umail.uz)**

**Manzil: 160133, Namangan sh,  
N.Nomongoniy ko'chasi, 14-uy**

## **Eslatib o'tamiz:**

*O'z faoliyatingizda statistika idoralari  
bilan bog'liq masala va muammolarga duch  
keldingizmi, statistik ko'rsatkich yoki tahliliy  
ma'lumot olishni xohlaysizmi?*

*Unday bo'lsa, quyidagi raqamlarga  
murojaat eting:*



**Ishonch telefoni:  
(69) 227-84-84**



**Viloyat statistika boshqarmasi  
rahbariyatiga bevosita murojaat etish:  
(69) 227-85-08**